

## RAQAMLI DAVRDA TIL O'ZGARISHLARI VA YANGI LINGVISTIK HODISALAR

Abdusalomova Madinabonu Rustamjon qizi  
O'zDJTU 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi o'zbek tilining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada raqamli davrda yuzaga kelayotgan yangi lingvistik hodisalar, xususan, o'zlashtirma leksemalar, ijtimoiy tarmoq qisqartmalari va imloviy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli davr, til o'zgarishi, leksema o'zlashtirish, ijtimoiy tarmoq, qisqartmalar, imloviy xatolar.

**Abstract.** The development of digital technologies and the internet has significantly influenced the Uzbek language. This article analyzes new linguistic phenomena in the digital era, including loanwords, abbreviations, and spelling changes in social media communication. Recommendations for improving speech culture are also provided.

**Keywords:** digital era, language change, lexical borrowing, abbreviations, spelling changes.

**Аннотация.** Развитие цифровых технологий и интернета оказывает значительное влияние на узбекский язык. В статье рассматриваются новые лингвистические явления, включая заимствования, сокращения и орфографические изменения. Также даны рекомендации по развитию речевой культуры.

**Ключевые слова:** цифровая эпоха, изменение языка, заимствования, сокращения, орфография.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar til rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar(Telegram,Instagram,TikTok) orqali muloqot tezlashib, nutqning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Til kishilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita bog'liqdir [1, 3-b.].Raqamli muhit esa til tizimida yangi lingvistik hodisalarning shakllanishiga olib kelmoqda.

**Asosiy qism** 1. Leksema o'zlashtirishlar va ularning o'rni . Til rivojida boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar – tabiiy va doimiy jarayon hisoblanadi. Ular lug'atimizni boyitishga xizmat qiladi va nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ortiqcha yoki noo'rin o'zlashtirishlar tilning sofligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1, 111–112-b.].Ba'zi hollarda o'zlashtirilgan so'zlarni sun'iy ravishda almashtirishga urinish amaliyotda muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Misol tariqasida “o'yingoh”, “tayyoragoh” yoki “oliyogh” so'zlari keltirilishi mumkin. Futbol maydonini “o'yingoh” deb atasak, boshqa sport turlari uchun maydonlarni qanday nomlash masalasi yuzaga keladi. Shu bois, til rivojida muvozanatli va nazariy asosga ega yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'zlashtirish jarayoni global kommunikatsiya va texnologiyalar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Raqamli platformalarda tez-tez ishlatiladigan inglizcha so'zlar, masalan: “streaming”, “webinar”, “influencer”, “meme”, o'zbek tiliga kirib, talaffuz va yozuv shakllari bilan moslashmoqda. Bu jarayon

nutqning yangicha emotsional va tezkor ifoda imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, tilshunoslar ta'kidlashicha, o'zlashtirma leksemalarni tahlil qilish va ular bilan ishlashda ilmiy yondashuv zarur [1, 111–112-b.].

2. Tarixiy va zamonaviy nutq taqqoslanishi. O'zbek tilining tarixiy rivojlanishini o'rganishda badiiy asarlar muhim manba hisoblanadi. Xususan, Abdulla Qodiriy – O'tkan kunlar romanida uchraydigan “bo'lg'anligi”, “jo'namag'anmi”, “edingiz” kabi shakllar o'sha davr nutqining grammatik jihatdan murakkabligini ko'rsatadi [2, 52, 137-b.]. Zamonaviy raqamli muhitda esa nutq aksincha soddalashib, qisqartmalar va ixcham shakllar keng qo'llanmoqda. Bu esa tilning tezkorlik va qulaylikka moslashayotganini ko'rsatadi.

3. Raqamli davrda yangi lingvistik hodisalar. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy atamalar keng qo'llanilmoqda: reels, layfhak, heshteg, emoji, dedlayn, chat, post, story, like, hit. Bundan tashqari, sleng ham zamonaviy nutqning ajralmas qismiga aylanmoqda. Sleng muayyan ijtimoiy guruhga xos, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega so'zlar tizimi hisoblanadi [3, 32-b.].

4. Ijtimoiy tarmoq yozuvi va imloviy o'zgarishlar. Raqamli kommunikatsiyada yozma nutq ham sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Xususan, quyidagi qisqartmalar keng qo'llaniladi:

- -db (deb)
- -kk (kerak)
- -ln (lekin)
- -u-n (uchun)
- W (“sh” o'rnida)
- yo' (yo'q)

Shuningdek, imloviy jihatdan soddalashtirilgan shakllar ham keng tarqalgan:

- yoqti (yoqdi)
- kutb (kutib)
- nma (nima)
- univer (universitet)

Mazkur holatlar nutqni tezlashtiradi, biroq adabiy til me'yorlariga zid bo'lishi mumkin.

#### **Taklif va tavsiyalar:**

- Yozma nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilishni targ'ib qilish.
- Ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyatini oshirish.
- O'zlashtirma leksemalarga nisbatan ilmiy yondashuvni kuchaytirish.
- Yoshlar nutqini lingvistik jihatdan o'rganish.

Xulosa. Raqamli davr til rivojida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Yangi lingvistik hodisalar, o'zlashtirma leksemalar, qisqartmalar va imloviy o'zgarishlar tilning ajralmas qismiga aylanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, adabiy til me'yorlarini saqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Raqamli kommunikatsiyada til madaniyatini targ'ib qilish va o'zlashtirma leksemalarga muvozanatli yondashuvni kuchaytirish muhim. Bunday ilmiy va amaliy chora-tadbirlar tilning boyligi va sofligini himoya qilishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy, A. (2008). O'tkan kunlar. Toshkent: Ziyo. — 52, 137-bet.
2. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:Universitet— 3, 111–112-betlar.
3. Xolmanova, Z. (2020). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent:Nodirabegim. — 32-bet.